

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Rajabov Feruz
Turdiyeva Munisa
Berdimurodova Dilnoza

QarMII akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: *Bu maqolada frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *aspekt, ekstralingvistik omil, frazeologik birlik, semantik, neytral nutq.*

Ijtimoiy hodisa sifatida tilga bo'lgan qiziqish yuz yillik tilshunosligining ajralib turuvchi jihatlaridan birini kasb etadi. Zamonaviy lingvistikada ijtimoiy aspektni o'rganishga katta ahamiyat qaratiladi. Sotsiolingvistikaning muhim rolini ko'rsatib, M.M.Makovskiy shunday yozadi, "ijtimoiy davr ekstralingvistik omilning nafaqat "tashqi qobig'i", balki tuzilishi, o'zgarishlari va mavjudligining ajralmas elementini tashkil etuvchi til konsepsiyasini xususan, ijtimoiy hodisa sifatida yaratish, rivojlantirish va tasdiqlash so'nrggi yuz yillik tilshunosligining shaksiz yutuqlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, tilning bir o'lchamli va bir tekis tizim emas, aksincha, turli omillar bir butun yig'indisining bir vaqtdagi ta'siriga mahkum bo'lgan murakkab ko'p aspektli hosilot ekanligini anglash o'ta muhimdir". Xususan, frazeologik birliklarga shu nuqtayi nazardan qarash o'rinlidir.

Bugungi kunda tilshunoslikda o'zining alohida o'rniga va vazifalariga ega soha – frazeologiya sohasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Frazeologik birliklar har bir xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash joy va tarkibi, intilishi, ijtimoiy voqelikka munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklar ixcham, semantik jihatdan alohida til birligi bo'lib, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so'zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

Frazeologizmlarning turli tillar doirasida qiyosiy o'rganish, ularning umumiylik va xususiylik dialektikasi jihatidan til va nutqning turli bosqichlarida tadqiq qilish, alohida olingan sohalarda frazeologik birliklar, ularning semantik-grammatik, shuningdek, nutqning vazifaviy uslublarida uslubiy xususiyatlarini ochib berish, ayniqsa, shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklarning semantik, grammatik va emotsional-yekspressiv xususiyatlarini belgilash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Semantik jihatdan shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birlik tadqiqotlari frazeologiya nazariyasida kamsonlidir. Shu bilan birga tadqiq qilinayotgan frazeologik birlikda yorqin ifodalangan ijtimoiy-tavsifiy belgi ko'zga

tashlandiki, bu frazeologik birliklarning sotsiologiyistik xususiyatlarini talqin qilish muhimdir.

Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklar boshqa leksik-semantik guruhlardan farqli o'laroq shunday muhim jihati bilan farqlanadiki, bunda inson jamiyatdagi, ishlab chiqarishdagi mavqe va ahamiyatiga ko'ra nomlanadi ya'ni, faoliyatining eng muhim ijtimoiy aspektiga ko'ra farqlanadi. Tadqiq etilayotgan frazeologik birliklar ijtimoiy munosabatlar, insonning mehnat faoliyati, turli kasb vakillarining jamiyatdagi bahosi bilan chambarchas bog'liq.

Bu kabi frazeologik birliklar til tashuvchi xalqning ijtimoiy hayoti, aniq siyosiy kontekstning so'ziga xos jihatlari aniq va yorqin o'z ifodasini topgan frazeologik qatlam hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida: machine politician – amer. partiya bilan chambarchas bog'langan siyosatchi – AQShning hukumat qurilishi manzarasini aks etadi; o'zbek tilida: “dehqon yomg'irda tinadi” – mehnatkash xalq vakili ma'nosini anglatadi. Frazeologik tadqiqotning mustaqil yo'nalishi sifatida frazeologik birliklarni turli tillarda sinxron-qiyosiy o'rganish hozircha rivojlanish bosqichidadir.

Tadqiq etilayotgan frazeologik birlikning tizimlashtirilgan, ustiga ustak sotsiologiyistik nuqtai nazardan qiyosiy o'rganish obyekti bo'lmagan. Binobarin, shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklar qiyoslanayotgan tillar frazeologiyasida muhim o'rin egallaydi, ular ancha keng ko'lamdagi guruhlarni hosil etadi.

Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklarni yetarlicha qamrab olish, ularni to'liq ochib berish, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birlikga yondoshishning o'ziga xos jihatlari frazeologiya obyektining aniq ta'rifini talab etadi.

Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklar ikki guruhni o'z ichiga oladi: 1) kasbiga ko'ra shaxsni nomlash, 2) ijtimoiy mavqesiga ko'ra shaxsni nomlash.

Nazariy jihatdan ushbu shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklar frazeologiyaning umumiy nazariyasi va qiyosiy frazeologiyaga e'tibor qaratadi. Frazeologiyaning umumiy nazariyasi umumiy komponentli aniq frazeologik birlik guruhining tizimlashtirilgan tasviri bilan to'ldiriladi. Tadqiq etilayotgan frazeologik birlikning ushbu sotsiologiyistik tahlili frazeologik birlik semantik-qurilish xususiyati ijtimoiy tobeligining maxsus ko'rinishi borasida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish muhim nazariy va amaliy qiymatga ega. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birlikni qiyoslash zaruriyati tilshunoslik - xorijiy tillarni o'rgatish metodikasi lingvistik asosining asosiy qoidalar ishlanmasi oldida turgan muhim nazariy va amaliy vazifani taqozo etadi.

Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklarning tizimlashuvi va namoyon bo'lishi, frazeologiya doirasiga kirishga moyillashtiruvchi

omillar tadqiqi, o'rganilayotgan frazeologik birlik va semantik guruhlarda obrazli qayta ma'nolashuv yo'llarini aniqlash, o'rganilayotgan frazeologik birliklarning milliy moslashgan xususiyatlari tahlilini ingliz va o'zbek tillarida kompleks o'rganib chiqish kabi muammolarni tadqiq etish asosiy omillardandir. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etishda o'rganish rakursi ularning sotsiologingvistik moslashuvining yuzaga chiqishi tomonga yo'naladi. Ko'rsatilgan muammolarni o'rganish umumiy va farqli tomonlarini ko'rsatish maqsadiga qaratilgan frazeologik birlikni qiyoslash asosida amalga oshirildi.

A.V.Kunin taomonidan ishlab chiqilagan frazeologik konsepsiya tadqiqot asosidir. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, frazeologik birlik muqimliligi, mazmunning qayta ma'nolanishi va frazeologik birlikning bo'limlar bo'yicha rasmiylashtirilganligi frazeologik birlikni tanlashning asosiy mezoni bo'ldi.

Frazeologik birliklarning sotsiologingvistik tadqiqi frazeologik birlikni lingvistik va sotsiologingvistik o'rganish uyg'unligi asosida yotuvchi kompleks yondoshuvni ko'zlaydi. Shaxslarning ijtimoiy-kasbiy belgisiga ko'ra atovchi frazeologik birliklar sotsiologingvistik tahlilida quyidagi usullar yordam beradi: 1) til va ijtimoiy hodisotlar korrelyatsiyasi, 2) qiyoslash, 3) o'lkashunoslik sharhi, 4) lug'aviy ta'rif metodi va ularga mos keluvchi usullar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.
2. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.1967.
3. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. – T. 1997.
4. Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O'TA.2001.3-son.